
Jaholatga qarshi – ma’rifat zarur

Ma’naviyat va ma’rifat markazi Qo’shtepa tuman bo’linmasi hamda “Suvoqava” DUK Qo’shtepa tuman filiali hamkorligida davlatimiz rahbarining joriy yilning 4 sentyabr kungi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarorining mazmun-mohiyatini joylarga yetkazish va ijrosini ta’minlash maqsadida “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida davra suhbatini o’tkazildi.

Unda tuman IIB, tuman “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, tuman bosh imom xatibi, “Nuroni” jamg’armasi tuman bo’limi rahbarlari va vakillari ishtirok etdi.

Tadbirning asosiy maqsadi aholi o’rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va ma’rifiy sohalardagi islohotlarni, qabul qilinayotgan qarorlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishdan iboratdir.







Davra suhbatida ma'ruzachilar jahonda g'oyaviy va mafkuraviy kurashlar avj olayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy urf-odat, an'analar va qadriyatlarimizga bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shilib qolish, tinchlik va osoyishtalik, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat urf-odat va insonparvarlik g'oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi kuchlar to'g'risida alohida to'xtalib o'tdilar.

Nodirbek OTABEKOV,

Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tuman bo'linmasi rahbari

2019-11-06 17:24:43